

# МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ



ISSN 2181-7138

№ 1 / 1 2021 жыл

## Илимий-методикалық журнал

Редактор:  
*A. Тилегенов*

Редколлегия ағзалары:  
Максет АЙЫМБЕТОВ  
Нагмет АЙЫМБЕТОВ  
Кенесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ  
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ  
Өсөрбай ЭЛЕУОВ  
Асқар ДЖУМАШЕВ  
Кенесбай Даулетяров  
Гүлнара ЖУМАШЕВА  
Батырбек КАЙПБЕРГЕНОВ  
Амангелди КАМАЛОВ  
Сарсен КАЗАХБАЕВ  
Гулмира КАРЛЫБАЕВА  
Сабит НУРЖАНОВ  
Уролбой МИРСАНОВ  
Арзы ПАЗЫЛОВ  
Зухра СЕИТОВА  
Айдын СУЛТАНОВА  
Тажибай УТЕБАЕВ  
Ризамат ШОДИЕВ  
Ойбахор ШАМИЕВА  
Бекзод ХОДЖАЕВ  
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ  
Гулрухсор ЭРГАШЕВА

Шөлкемлестириүшилер:  
Қарақалпақстан Республикасы  
Халық билимлендіриү  
Министрлігі, ӨЗПИИ  
Қарақалпақстан филиалы

Өзбекстан Республикасы  
Министрлер Кабинети  
жанындағы Жоқарғы  
Аттестация Комиссиясы  
Президиумының 25.10.2007  
жыл (№138) қаравы менен  
дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм  
хабар агентлиги тәрепинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге  
алынды №01-044-саналы гүйалық  
берилген.  
Мәнзил: Нөкис қаласы,  
Ерназар Алакөз көшеси №54  
Тел.: 224-23-00  
e-mail: uznipnkf@mail.uz,  
mugallim-pednauk@mail.uz  
[www.mugallim-uziksiz-bilim.uz](http://www.mugallim-uziksiz-bilim.uz)

Журналга келген мақалаларға жеүап қайтарылмайды, журналда жетрояланған мақалалардан  
алынған үзиндер «Мугаллим ҳәм үзлиksiz bilimlenediриү» журналынан алыны, деп корсетилиғи  
шарт. Журнала 5-бет колеміндеғи материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шириф-  
тіндеге электрон версиясы менен бирге қабыл етіледи. Мақалада көлтирилген мәглүмәттердеге автор  
жекуапкер.

# МАЗМУНЫ

## БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӨРБИЯ

<b>Mardonov Sh.Q., Abdullayev A.A.</b> Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab hamkorligi .....	4
<b>Mahmudova D.B.</b> Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi .....	8
<b>Shanasirova Z.Yu.</b> Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagি bolalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash hamda nutqini rivojlantirish .....	13
<b>Abdullayeva M.Dj.</b> Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlар .....	17
<b>Narimbayeva L.K.</b> Maktabgacha yoshdagи bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishning ahamiyati .....	20
<b>Nosirova R.X.</b> Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa ta'limi va tarbiyasining mohiyati .....	22
<b>Kolmatova S.K.</b> Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda Sharq mutafakkirlari fikrlaridan foydalanish ahamiyati .....	26
<b>Maripova N.H.</b> Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya .....	28
<b>Sanakulova A.R.</b> Maktabgacha ta'lim muassasalarini rahbarlarida huquqiy tarbiyanı rivojlantirish .....	31
<b>Teshabayeva Z.S.</b> Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya maqsadi .....	34
<b>Nasirova Z.X.</b> O'yin turlari: ijodiy o'yinlar, qoidalı o'yinlar, milliy o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari .....	38
<b>Shanasirova Z.Yu.</b> Maktabgacha yoshdagи bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning ahamiyati .....	43
<b>Jo'raboyev A.B.</b> Maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy qadriyatlarini singdirish amaliyoti .....	48
<b>Abdullayev A.A.</b> Maktabgacha ta'lim muassasalarida rahbarlik qilish va tashkil etishning zamonaviy usullari .....	51
<b>Achilova M.S.</b> Maktabgacha ta'lim muassasalarida estetik tarbiyaning mazmuni .....	55
<b>Ochilov F.I., Xusanova N.B.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy pedagogik kompetentsiyalarni shakllantirish talablari .....	58
<b>Narimbetova Z.A., Asqarova N.J.</b> Boshlang'ich sinf matematika darslarida didaktik o'yinlarning ahamiyati .....	62
<b>G'ulomova X.</b> Boshlang'ich sinf o'qish darslarida maqollar estetikasi .....	67
<b>Умарова З.А.</b> Бошлангич таълимда педагогик жараён .....	70
<b>Жабборова О.М., Сайдғаниева З.С.</b> Бошлангич таълим педагогикаси: мазмун ва моҳият .....	74
<b>Quzmanova G.B., Ergasheva M.E.</b> Umumiy o'rta ta'lim maktabalarida ota-onalar yig'ilishini samarali tashkil etish .....	78
<b>Мамадалиев К.Р.</b> Бошлангич таълим йўналиши ўкув фанлари тузилмаси ва замонавий ўкув адабиётларини яратиш принциплари .....	80
<b>Тожибоева Г.Р., Крымская Э.</b> Проблемы развития творческих способностей в процессе становления будущего учителя начальных классов .....	86

## ТИЛ ХЭМ ӘДЕБИЯТ

<b>Матчонов С., Холиқулова Ф.</b> Ўқувчиларнинг нуткий кўнижмаларини шакллантириша матннинг лингводидактик таҳлили .....	91
<b>Шерматова У.С., Жабборова О. М.</b> Самостоятельное чтение и интерпретация правды жизни .....	95

so‘zlardan ko‘ra rasmlarning ta’siri ayniqsa qatta bo‘ladi. Bola kitobdagи rasmlarni qayta-qayta o‘z o‘rtoqlariga, kattalarga, qo‘g‘irchog‘iga «o‘qib» berish bilan uning mazmunini o‘z xotirasida mustahkamlaydi. Kitobdagи chiroyli, yorqin rasmlar bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi. Qattalar mehnati, qahramonlik, shuningdek, ona Vatanga bo‘lgan muhabbat, do‘stlik, birodarlik, bolalarning ota-onalariga nisbatan mehribon bo‘lishlari kabi mavzularda yozilgan hikoyalar bolalarga tushunarlidir.

#### Adabiyotlar:

1. Yegorov A.V. Nurmatov F.A. Suzish va uni o‘qitish metodikasi. Ma’ruza matnlari. – T.: 2002 y.
2. Orexova A.V. Differensirovanniy podxod pri izuchenii dissiplinii «Plavanie» studentam razlichnykh sportivnykh spesializatsiy: Avtref.dis. ...kand.ped.nauk / A.V. Orexova. – SPb., 2002. – 21 s.
3. Sobirova O.A. “Suzish” medesina nashriyoti. – T.: 1993
4. Sportivnoe i voenno-prikladnoe plavanie: Uchebnik / Pod red. prof. O.V. Novoselseva. – SPb.: VIFK, 2005.– 584 s.

#### РЕЗЮМЕ

Maqolada maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarning estetik rivojlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlар о‘rganilgan. Bilamizki, jamiyatimiz va davlatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri inson to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, yosh avlodni yetuk shaxs, zamonamiz talablariga javob beradigan, bilimdon, yuksak ma‘naviyatlari, e’tiqodi mustahkam, irodasi kuchli, xalq, Vatan uchun jon kuydiradigan komil inson qilib tarbiyalash va voyaga yetkazishdir.

#### РЕЗЮМЕ

В статье исследуются особенности эстетического развития дошкольников. Мы знаем, что одна из актуальных задач, стоящих перед нашим обществом и государством, - это забота о людях, чтобы подрастающее поколение было зрелым, образованным, задорным, волевым, волевым, людьми, Его надо воспитывать. и воспитанный как идеальный человек, увлеченный своей родиной.

#### SUMMARY

The article examines the peculiarities of the aesthetic development of preschool children. We know that one of the urgent tasks facing our society and state is to take care of the people, to make the younger generation mature, educated, high-spirited, strong-willed, strong-willed, people, it is to be brought up and brought up as a perfect person who is passionate about his homeland.

---

## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARНИ MA’NAVIY-AXLOQИY TARBIYALASHDA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Narimbayeva L.K.*

*TVChDPI Maktabgacha ta‘lim kafedrasi o‘qituvchisi*

**Tayanch so‘zlar:** ma‘naviy-axloq, tarbiya, ta‘lim, xalq og‘zaki ijodi, ertak, maktabgacha ta‘lim, oila.

**Ключевые слова:** духовность, воспитание, образование, фольклор, сказки, дошкольное образование, семья.

**Key words:** spirituality, upbringing, education, folklore, fairy tales, preschool education, family.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma‘naviy-axloqiy kamolotida oila va maktabgacha ta‘lim tashkilotlarda о‘rganiladigan topishmoq, topishmoqli ertaklarning ta‘lim-tarbiyaviy ahamiyati, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarda xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida

maktabgacha yoshdagи bolalarnи ма'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakл va metodlari, maktabgacha yoshdagи bolalarnи ма'naviy-axloqiy tarbiyalashda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining hamkorligi yoritib beriladi.

Topishmoq azaldan xalq pedagogikasining oliy namunasi hisoblanadi. Zero, xalq og'zaki ijodining eng qadimgi va eng faol janrlaridan biri ham topishmoq hisoblanadi. Topishmoqlar inson, ijtimoiy hayot va tabiat hodisalarini bilan chambarchas bog'langan bo'lib, hammavaqt real zaminga asoslanadi. Unda atrofimizni o'rab turgan moddiy dunyodagi turli narsalar aks etadi. Har bir topishmoq o'ziga xos shakл va mazmunga ega bo'lgan mustaqil bir asardir. Unda falsafiy, tarixiy, etnografik belgililar, tushunchalar, hodisalarining mohiyati nihoyatda go'zal obrazli ifodalar bilan aks ettiriladi.

Topishmoq aytish, asosan, bolalarning so'z boyligini oshirish, hayot va uning hodisalarini haqidagi tushunchalarini va tasavvurlarini, idroki va mulohaza qobiliyatini kengaytirishda tarbiya vositasi hisoblanadi. Ular tarbiyalanuvchilarini ko'proq narsa va buyumlarni, tabiat va uning hodisalarini idrok qilishga yordam beradi. MTM (maktabgacha ta'lim muassasasi) da maktabgacha yosh davrida bolalarga topishmoq aytish, uning javobini topish va xulosalar chiqarish bolalarni faqatgina o'sha aytilayotgan tpishmoqning javobini topish uchun harakat qilishidagina emas, balki bolalar o'rtasida bir-biriga mehr, do'stilik, o'rtoqlik, hamjihat bo'lib yashash kerakligi haqida fikrlar bildiriladi.

MTT (maktabgacha ta'lim tizimi)da xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda MTT pedagog-tarbiyachilar tomonidan bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasida amalga oshiriladigan ishlarning mazmun-mohiyati va yo'nalishiga ko'ra rejalashtirish va tashkil qilish funksiyalari quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi:

maqsadi, vazifasi va shakliga ko'ra turli mashg'ulot va uchrashuv, suhbat jarayonlarini rejalashtirish va loyihalashdirish;


modellashdirish, ya'ni tashkil qilinadigan pedagogik jarayonlarda tarbiyalanuvchilarining ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish va ularning imkoniyatlarini inobatga olgan holda faolligini ta'minlash bo'yicha vazifalarni oldindan belgilash;

yaratilgan shart-sharoitlar va mayjud vaziyatlarga ko'ra tarbiyalanuvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajalarini nazorat qilish, ibrat, namuna ko'rsatish, tahlil qilish va ob'ektiv baholash asosida rag'battantirish.

MTTda bolalarni xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishda sanab o'tilgan pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash uchun pedagogik yondashuvni tafbiq qilish zarur (1-chizma).

Ushbu modelning amaliyotga tafbiq etilishi xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagи bolalalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishdagi ustuvor masalalarni ijobjiy hal etishga olib keladi deb izohlagan o'z tadqiqot ishida D.A.Abdurahimova.

Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagи bolalalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishda falsafiy,



1 chizma. MTT va oilada xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagи bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni takomillashtirish mexanizmi

milliy-ma'naviy, psixologik, pedagogik yondashuvning mazmun va mohiyatini anglashga erishiladi, maktabgacha yoshdagagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ijtimoiy omillarning ta'sirini hisobga olish hamda ma'naviy - axloqiy tarbiyani o'zida mujassamshtirgan xalq og'zaki ijodi namunalariiga tayanish zarur.

Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishda oila, mahalla, MTT hamkorligi mexanizmini hayotga tatbiq etish o'zining ijobjiy samarasini berdi.

Demak tarbiyalanuvchi shaxsining individualligi va noyobligini hisobga olgan holda ota-onalar va keng jamoatchilikning yoshlarni xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash uchun hissa qo'shishga shaxsan mas'ul ekanligini, ota-onalarning o'zlarini milliy qadriyatlarimizning bosh bo'g'ini xisoblangan xalq og'zaki ijodi namunalari alla, ertak, maqol, topishmoqlarni bilishi, bu borada ularning xalq og'zaki ijodi namunalari to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishini yanada takomillashtirish, yosh ota-onalarni pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollantirish, bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga xizmat qiluvchi uslubiy qo'llanmalar, risolalar va bukletlarni chop etish va tarqatish orqali yosh ojalarga oilaviy munosabatlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya to'g'risidagi bilimini oshirishda ko'maklashish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rib chiqdik.

Adabiyotlar:

1. Rasulx'jaeva M.A. Bolalarni hayvonot olami bilan tanishtirish orqali axloqiy sifatlarini shakllantirish texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma - T.: "Ilm-Ziyo Zakovat" 2020.
2. G.Tulenova, X.Xo'jayev P.Xo'jayeva. "Jismoniy tarnazariyasi va metodikasi". T.: Ilm ziyo. 2012
3. Xasanboeva O.U. va boshq - Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. - O'quv qo'llanma - T.: Ilm ziyo. 2012
4. Xasanboeva O. va boshq - Oila pedagogikasi. O'quv qo'llanma - T.: "Aloqachi", 2007 y.

РЕЗЮМЕ

Maqolada maktabgacha yoshdagagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье анализируется значение использования фольклора в духовно-нравственном воспитании дошкольников.

SUMMARY

The article analyzes the importance of the use of folklore in the spiritual and moral education of preschool children.

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ МУАССАСALARIDA МУСИҚА ТА'ЛИМИ VA ТАРБИЯСИНING МОХИYATI

*Nosirova R.X.*

*TVChDPI Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** hayot, go'zallik, musiqa, ta'lim, tarbiya, vazifa, ijod, tabiat, maktabgacha ta'lim muassasi, estetik munosabat.

**Ключевые слова:** жизнь, красота, музыка, образование, воспитание, задача, творчество, природа, дошкольное учреждение, эстетическая установка.

**Key words:** life, beauty, music, education, upbringing, task, creativity, nature, preschool, aesthetic attitude.